



SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

i.f.d., prof. Urazov Komil

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID:0009-0007-8330-7700

urazov.komil59@gmail.com

Po'latov Xudoyberdi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID:0000-0002-7304-603X

pulatov.xudoyberi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo korxonalarida yangicha zamonaviy buxgalteriya hisobining hozirgi yangi savdo tushunchalari, hamda uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va sohaning o'ziga xos xususiyatlari, savdo korxonalarining yanada rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llagan holda vaqt va mehnat unumdorligiga erishish, shuningdek savdo korxonalarining buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ulgurji savdo, chakana savdo, raqamli savdo, nasiya savdo, raqamli naqd savdo, raqamli konsignatsion savdo, raqamli ombor orqali naqdsiz savdo, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, Jahon savdo tashkiloti.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

д.э.н., проф. Уразов Комил

Самаркандский институт экономики и сервиса

Пулатов Худойберди

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные концепции современного бухгалтерского учета на торговых предприятиях, а также приоритетные направления его развития и специфические особенности отрасли, широкое использование современных технологий в дальнейшем развитии торговых предприятий для достижения производительности времени и труда, а также адаптация бухгалтерского учета на торговых предприятиях к международным стандартам.

Ключевые слова: оптовая торговля, розничная торговля, цифровая торговля, национальная торговля, торговля за цифровые наличные, цифровая консигнационная торговля, безналичная торговля через цифровой склад, бухгалтерский учет, международные стандарты финансовой отчетности, Всемирная торговая организация.

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING IN TRADING ENTERPRISES

*DSc, prof. Urazov Komil**Samarkand Institute of Economics and Service**Pulatov Khudoyberdi**Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract. *This article discusses the current concepts of modern accounting in trading enterprises, as well as the priority areas of its development and the specific features of the industry, the widespread use of modern technologies in the further development of trading enterprises to achieve time and labor productivity, as well as the adaptation of accounting of trading enterprises to international standards.*

Keywords: *wholesale trade, retail trade, digital trade, national trade, digital cash trade, digital consignment trade, cashless trade through a digital warehouse, accounting, international financial reporting standards, world trade organization.*

Kirish.

Jahonda XXI asrning eng muhim, qolaversa, bosh xususiyati hisoblangan raqamlashtirish savdoning yangi turlari va shakllarini, chunonchi elektron savdoni borgan sari ravnaq topishiga olib kelmoqda. Global elektron tijorat statistikasi shuni ko'rsatadikiy 2023-yilda jahonda elektron savdo hajmi 6,2 trln. dollarni tashkil etdi, Xitoy elektron savdodan 1,54 trln dollar daromadga erishib, dunyo lideriga aylandi, 2-o'rin AQShga (870,78 mlrd dollar), 3-o'rin Yaponiyaga (128 mlrd dollar), 4-o'rin Buyuk Britaniyaga (118 mlrd dollar), 5-o'rin Germaniyaga (109 mlrd dollar) tegishli bo'ldi. Elektron savdo umumiy hajmida mobil tranzaksiyalar ulushi 63 foizni tashkil etdi. Prognozlarga ko'ra, 2040 yilga kelib jami savdoning 95 foizi onlayn tarzda amalga oshirilishi kutilmoqda (Asoworld.com, 2023). Raqamlashtirish savdo faoliyati mazmunini tashkil qiluvchi jarayonlar, ularga oid daromadlar, sarf-xarajatlar, soliq to'lovlari, haridorlarga berilayotgan preferensiyalar, ular bilan hisob-kitoblar va boshqa xo'jalik operatsiyalari hisobini tashkil qilishga yangicha ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda.

Jahonda savdoni raqamlashtirish, ushbu faoliyat hisobini raqamli texnologiyalar asosida xalqaro standartlarga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda diqqatga molik amaliy tajribalar ham to'plangan. Ushbu tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, dunyodagi ilg'or tajribalardan raqamli savdo faoliyatini rivojlantirish maqsadlarida qo'llash barcha mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidentining 2018-yil 18 maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3724-sonli qarorida, shuningdek 2022-yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-104 -son qarorida savdo faoliyatini, chunonchi elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan aniq manzilli vazifalar hamda aniq chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu ustuvor vazifani muvaffiqiyatli bajarilishi korxonalarda buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlari hisoblangan raqamli savdo faoliyati turlari, tovarlarni turli usullarda sotishdan olingan daromadlar, sarf-xarajatlar, soliq to'lovlari, hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotning boshqa elementlarini tasniflash, tavsiflash, tan olish, baholash, o'lchash hamda ular hisobini soliq qonunchiligi va xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish yo'llarini chuqur tadqiq etishni ob'ektiv zarurat qilib qo'yimoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatadi:

Abdulkarimov (2013) fikricha Muallifning ta'kidlashicha, savdo – bu tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga yetkazilish jarayonini tashkil etuvchi iqtisodiy faoliyat bo'lib, u bozor munosabatlarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Marks fikricha xo'jalik faoliyatini ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining uzviy bog'liqligi sifatida ko'rib, bu jarayonlar bir-birisiz amalga oshmasligini ta'kidlaydi. Sotish bo'lmasa, korxonaga pul tushmaydi; pulsiz esa ta'minot va ishlab chiqarish jarayonlarini davom ettirib bo'lmaydi.


Urazov (2004; 2005; 2011; 2023) fikricha «Faoliyat sifatida savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. Ular tovarlarni sotib olish va sotish jarayonida ishtirokchi bo'lganligi sababli ishlab chiqarish sohasini iste'mol sohasi bilan bog'lovchi hisoblanadi. Shu sababli savdosiz yaratilgan mahsulotlar o'z iste'molchilariga yetib bormaydi va ularning takror ishlab chiqarishini amalga oshirib bo'lmaydi»

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada metodologik asoslarini respublikamiz qonunlari, Prezidentimiz farmonlari, qarorlari, asarlari va ma'ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobi oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo'riqnomalar, xorijda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog'i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarning amaliy materiallari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotni tabora erkinlashtirish va raqamlashtirish korxonalarda savdo faoliyatining yangicha nom va maqomga ega bo'lgan turlari, rejimlari va shakllarini vujudga kelishi va rivojlanishiga olib keldi. Ular biz tomonimizdan 1-rasmda tizimlashtirilgan.



1-rasm. Iqtisodiyotni tabora erkinlashtirish va raqamlashtirish sharoitida savdo faoliyati turlari, rejimlari va shakllari

Savdo faoliyatining nomlari yuqorida keltirilgan turlari amalga oshirish joyi, texnika va texnologiyasi, sotiladigan tovarlar miqdori, sotish rejimi, shakli, xaridorlarning ishtiroki, savdo preferensiyalari, mijozlar bilan hisoblashishlarning turlari, soliqqa tortilishi, hujjatlashtirilishi va boshqa jihatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi, Aynan shu jihatlari bo'yicha ular buxgalteriya xisobining o'ziga xos ob'ektlari hisoblanadi. Biroq, buxgalteriya hisobiga oid darsliklar va o'quv qo'llanmalarda zamonaviy savdo faoliyati turlariga hisob ob'ektlari sifatida ularning bir-biridan farqli xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi ta'riflari va tasnifi ishlab chiqilmagan.

Maqolamizda zamonaviy raqamli savdo turlariga ularning buxgalteriya hisobi ob'ektlari sifatidagi eng muhim tasnifiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi quyidagicha ta'riflar ishlab chiqilgan:

raqamli savdo – bu tovarlarni xaridorlarga zamonaviy savdo maydonlari (marketlar, birjalar, omborlar) orqali turli formatlarda oflayn va onlayn rejimlarda donalab, katta va kichik partiyalarda, hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar, mobil aloqa vositalari, pul ko'chirish yo'li orqali amalga oshirishga asoslangan savdo faoliyati.

raqamli nasiya savdo – bu tovarlarni xaridorlarga chakana savdo korxonalarini orqali oflayn va onlayn rejimlarda donalab hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali nasiyaga hisob-kitoblarni sotish shartnomalari shartlari asosida amalga oshirishga asoslangan chakana savdo faoliyati.

Raqamli UzPost bo'limlari orqali savdo - bu tovarlarni xaridorlarga UzPost bo'limlari orqali oflayn va onlayn rejimlarda kichik partiyalarda hisob-kitoblarni individual buyurtmalar bo'yicha naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali oldindan to'lov shaklida amalga oshirishga asoslangan chakana savdo faoliyati.

Raqamli ombor (terminal) orqali savdo - bu tovarlarni xaridorlarga ombor (terminal) orqali oflayn va onlayn rejimlarda tuzilgan shartnomalar asosida katta partiyalarda naqdsiz to'lov shaklida amalga oshirishga asoslangan ulgurji savdo faoliyati.

Raqamli birja savdosi – bu elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, istagi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksion va tanlovlar jarayoniga kirish hamda ularda qatnashish imkonini ta'minlaydigan savdo faoliyati.

Zamonaviy savdo faoliyatini 8 ta tasnifiy belgilari bo'yicha tasniflash tavsiya etilgan hamda ularning har biri bo'yicha alohida hisob ob'ekti sifatida tan olinishi kerak bo'lgan savdo faoliyatining aniq turlari belgilandi. Shuningdek, zamonaviy savdo faoliyatining tavsiya etilgan tasnifiy belgilari bo'yicha turkumlangan tasnifiy turlari kesimida korxonalar hisob yuritish siyosatiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilandi. Ularning asosiylari biz tomonimizdan 1-jadvalda mujassamlashtirilgan.

Mazkur ilmiy tavsiyalar korxonalar hisob siyosatini raqamli savdo faoliyati turlarining mazmun-mohiyati, xarakterli jihatlari bilan boyitadi. Shuningdek, ular korxonalar hisob siyosatida raqamli savdo faoliyati turlarini hisob va hisobotda aks ettirishning dastaklarini – boshlang'ich hujjatlarni, schyotlarni va ularni yuritishning uslubiy tartiblarini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalar savdo faoliyati va uning natijalarini hisob va hisobotda aks ettirish milliy va xalqaro miqyoslarda turli standartlar bilan tartibga solingan. Ushbu standartlarning o'xshashlik va farqli jixatlari tadqiqi shuni ko'rsatdiki, respublikamizda savdo faoliyati va uning natijalariga bevosita aloqador bo'lgan 10 nafar BHMSlardan 5 tasi (BHMS 3, BHMS 14, BHMS 15, BHMS 19, BHMS 21) xalqaro miqyosda aynan shu nomlarda mavjud emas, 3 tasi (BHMS 1, BHMS 2, BHMS 4) xalqaro miqyosdagi standartlardan nomlanishi, tarkibi va ayrim metodologik tartiblar bo'yicha farqlanadi. Shuningdek, korxonalarning savdo faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan 5 ta xalqaro standartlar (IAS 1, IAS 12, IAS 13, IAS 36, IAS 37)ning nomi va mazmuniga mos keluvchi milliy standartlar respublikamizda ishlab chiqilmagan.

1-jadval

Zamonaviy savdo faoliyati turlarining hisob yuritishda muhim rol o'ynovchi tasnifiy belgilari bo'yicha tasnifi, ularning korxonalar hisob siyosatiga ta'siri, shuningdek raqamli savdo faoliyatining har bir turi bo'yicha korxonalar hisob siyosatiga qo'yilayotgan asosiy talablar

№	Tasnifiy belgi	Tasnifiy turlari	Hisob yuritish siyosatiga ta'siri va unga qo'yiladigan asosiy talablar
1	Savdo-sotiq amalga oshirilayotgan joyiga ko'ra	- Ombor orqali savdo - Ochiq bozor orqali savdo - Magazin (do'kon) orqali savdo	Hisob siyosatida tovarlarni saqlash joylarida kirim va sotish baholarini, ular holati va harakatini hujjatlashtirish va hisobga olishning aniq usullarini belgilash talabini qo'yadi
2	Savdo turiga ko'ra	- Ulgurji savdo - Mayda ulgurji savdo - Chakana savdo	Hisob siyosatida ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo operatsiyalarini aniq tegishli hujjatlar (schiyot-fakturalar, NKM cheklari va boshqalar) bilan rasmiylashtirilishi, ular asosida ulgurji va chakana savdo aylanmasini sotish baholarida hisobga olishga imkon beruvchi aniq schiyotlar va buxgalterlik yozuvlarini belgilash talabini qo'yadi
3	Savdo rejimiga ko'ra	- Oflayn savdo - Onlayn savdo	Hisob siyosatida oflayn va onlayn rejimlardagi savdoni xaridorlar bilan bevosita muloqat va ular bilan bevosita muloqatsiz tarzda sotish baholarida amalga oshirishda yetkazib berishdan daromadlar va ularga oid xarajatlarni shartnomalar (buyurtmalar) shartlari kesimida hisobga olishga imkon beruvchi tartiblarni belgilash talabini qo'yadi
4	Savdo shakliga ko'ra	- Raqamli naqd chakana savdo, - Raqamli nasiya savdo; - Raqamli UzPost bo'limlari orqali savdo); - Ombor,terminal, birja orqali raqamli ulgurji savdo	Hisob siyosatida turli savdo shakllarida olinadigan sof tushum, sotish tannarxi, QQS, aylanmadan soliq, debitorlik va kreditorlik qarzlarni tizimli hujjatli asosda korxona hisob va hisobotida aks ettirish tartiblari va dastaklarini belgilash talablarini qo'yadi
5	To'lov turiga ko'ra	- Naqd pul bilan savdo; - Naqdsiz pul ko'chirish orqali savdo; - Plastik kartalar orqali savdo; - Mobil aloqa vositalari orqali savdo	Hisob siyosatida turli savdo faoliyatidan tushumlarni to'lov turlari kesimida hisob va hisobotda aks ettirish hamda pul oqimlarini nazorat qilish tartib va dastaklarini belgilash talabini qo'yadi
6	Xaridorlarga beriladigan preferensiyalarga ko'ra	- Savdo chegirma-lari bilan savdo - Bonusli savdo - Keshbekli savdo - Bepul yetkazib berish orqali savdo	Hisob siyosatida savdo ustamalarini bosqichma-bosqich kamaytirish, ya'ni ulardan chegirmalar, bonuslar, keshbek, bepul yetkazib berish xarajatlarini hisob-qilish, hisob va hisobotda aks ettirish tartiblari va dastaklarini belgilash talabini qo'yadi
7	Soliqqa tortilishiga ko'ra	- Umumsoliqlarga tortiladigan savdo - Aylanmadan soliqqa tortiladigan savdo	Turli savdo faoliyati bo'yicha QQS, foyda solig'i, aylanmadan soliq to'lovlarini to'g'ri hisob-kitob qilish va hisobini yuritish talabiga javob beruvchi tartiblar va dastaklarni belgilaydi
8	Soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlarga ko'ra	- Soliqdan to'liq ozod qilingan savdo - Soliqdan qisman ozod qilingan savdo - Pasaytirilgan stavkada soliqqa tortiladigan savdo	Turli savdo faoliyati bo'yicha soliq imtiyozlari (soliqdan to'liq ozod qilish, soliqdan qisman ozod qilish, soliqni pasaytirilgan stavkalarda to'lash) va kechiktirilgan soliq to'lovlarini to'g'ri hisob-kitob qilish va hisobini yuritish talabiga javob beruvchi tartiblar va dastaklarni belgilaydi

Dissertatsiyada milliy va xalqaro standartlarni o'zaro muvofiqlashtirish va transformatsiyalashga qaratilgan quyidagi tavsiyalar ishlab chikildi.

Birinchidan, respublikamizda xuddi xalqaro miqiyosdagi IAS 1 "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli va mazmundagi BHMS ishlab chiqilishi, ushbu standart tarkibiga amaldagi 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ning moliyaviy hisobotga oid bandlarini, shuningdek, amaldagi BHMS 3, BHMS 14, BHMS 15ni to'liq transformatsiyalash lozim;

Ikkinchidan, amaldagi 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ni IAS 8 "Hisob siyosati, buxgalterlik baholashdagi o'zgarishlar va xatoliklar"ga to'lig'icha muvofiqlashtirish, shuningdek unga amaldagi BHMS 3 "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"da keltirilgan hisob bahosidagi o'zgarishlarni, hisob siyosatidagi o'zgarishlarni va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdagi muhim jiddiy xatolarni tuzatishlarni hamda yoritib berish tartiblarini kiritish kerak;

Uchinchidan, amaldagi BHMS 19 "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" va BHMS 21 "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" ni BHMSga sharhlar sifatida qayta tasdiqlash maqsadga muvofiq;

To'rtinchidan, amaldagi "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" nomli 2-son BHMSni xalqaro miqiyosda tan olingan AFRS 15 "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum" asosida qayta tasdiqlash lozim;

Beshinchidan, amaldagi "Tovar-moddiy zahiralarni" nomli 4-son BHMSni xalqaro miqiyosda tan olingan IAS 2 "Zahiralarni"ga to'liq muvofiqlashtirish, shuningdek ushbu standartga tovarlar tannarxi va sotish baholarini aniq hisob-kitoblari hamda ularni tuzish tartiblarini kiritish kerak;

Oltinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar amaliyoti uchun o'ta muhim bo'lgan IAS 12 "Foydaga soliqlar", IAS 13 "Haqqoniy qiymatni baholash", IAS 36 "Aktivlar qadrsizlanishi" va IAS 37 "Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" asosida ushbu nomlardagi va mazmundagi milliy standartlarni qabul qilish lozim.

Yuqoridagi ilmiy tavsiyalar quyidagi imkoniyatlarni beradi: respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha milliy standartlarimizni MHXS talablariga muvofiqlashtirishga; respublikamiz BHMSlarini MHXSga to'g'ri va tez transformatsiyalashga; savdo faoliyati turlari va ular natijalarini xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda real aks ettirishga; milliy hisob va hisobot tizimimizga xorijiy investorlar va mulkdorlar ishonchini oshirishga.

Amaldagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" nomli 21-son BHMSga muvofiq tovarlar hisobini ulgurji savdo korxonalarida uzluksiz tizim, chakana savdo korxonalarida esa davriy tizim asosida yuritish nazarda tutilgan. Ushbu har ikkala tizimda hisob yuritish uchun standartda belgilangan schyotlar hamda ularni yuritishning uslubiy tartiblari tovarlar to'g'risidagi hisob axborotlarini "xarid - sotuvga tayyorlash - sotish" zanjirida qat'iy ketma-ketlikda tizimli asosda shakllantirish talablariga to'liq javob bermaydi. Chunonchi:

*uzluksiz hisob tizimida ishlayotgan ulgurji savdo korxonalarida tovarlar xaridi va ular kirim qiymati (tannarxi)ni shakllantirishga mo'ljallangan maxsus schyot mavjud emas. Ushbu funksiyani hozirgi paytda 2910 "Omborlardagi tovarlar" schyoti bajarib kelmoqda, holbuki mazkur schyotning o'zi aslida ta'minot jarayonining natijasi bo'lgan tovarlarning aktiv sifatidagi holati va harakatini aks ettirishga mo'ljallangan.

*davriy hisob tizimida ishlayotgan chakana savdo korxonalarida tovarlar xaridi va ular kirim qiymati (tannarxi)ni shakllantirish uchun 9140 «Davriy hisobda TMZni sotib olish/xarid qilish» schyotidan foydalaniladi. Mazkur schyot mazmun - mohiyati, tizimlashtirish tartibiga ko'ra ta'minot jarayoni hisobi uchun mo'ljallangan schyotlarga mos va xos emas. Ushbu schet tizimlashtirish tartibiga ko'ra moliyaviy natijalarni aks ettirishga mo'ljallangan vaqtinchalik


(tranzit) schyotlar tizimi tarkibiga kiradi, u mazmunan sotish jarayoniga tegishli schyot bo'lib hisoblanadi;

*amaldagi 21-son BHMSda tovarlarni sotuvga tayyorlash jarayonini aks ettiruvchi schyotlar nazarda tutilmagan. Odatda, ushbu jarayonda tovarlarni sotishga tayyorlash uchun qo'shimcha xarajatlar qilinadi, ularning sotish narxlarini shakllantiriladi hamda ushbu narxlarda ular hisobga olinadi;

*amaldagi 21-son BHMSda savdo tushumini zamonaviy raqamli savdo faoliyati turlari, chunonchi raqamli naqd pulga sotish, raqamli naqdsiz pulga sotish, raqamli nasiya sotish, Raqamli UzPost bo'limlari orqali sotish kesimlarida tizimli aks ettiruvchi schyotlar, xaridorlarga taqdim etiladigan savdo chegirmalarining zamonaviy turlari – ustamadan chegirma, keshbek, bonuslarni aks ettiruvchi schyotlar, tovarlar qaytarilishi, yo'qotishlari va qadsizlanishini tizimli aks ettiruvchi schyotlar mavjud emas hamda ularni yuritishning uslubiy tartiblari o'z aksini topmagan.


Yuqoridagi muammolarni hal qilish, hisob va hisobotning korxonalar raqamli savdo faoliyati mazmunini tashkil qiluvchi jarayonlar va operatsiyalar to'g'risida axborot berish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Birinchidan, chakana savdo korxonalari uchun hisob yuritish tizimi sifatida belgilangan davriy hisob tizimini bekor qilish va uning o'rniga ushbu maqomdagi savdo korxonalarida ham ulgurji savdo korxonalaridagi kabi tovarlar harakati hisobining uzluksiz tizimiga o'tish maqsadga muvofiq. Zamonaviy smart post, nazorat kassa mashinalari (NKM), mobil soliq ilovalari va "1 S: Buxgalteriya" dasturlarini o'zaro integratsiyalashgan tizimini vujudga kelishi, uni ham ulgurji, ham chakana savdo korxonalari amaliyotida qo'llanilishi tovarlar harakatini qat'iy ravishda ularning markirovka identifikatsiya kodlari (MIKLari) kesimida ham kirim, ham sotish baholarida tizimli hisobga olish, sotishdan olingan daromadlarni, sotilgan tovarlar tannarxini, yalpi foydani yoki savdo ustamalarini summalarini avtomatik hisob-kitob qilish, shuningdek sotilmagan tovarlar qiymatini ham xarid narxlarida, ham sotish narxlarida hisobda aks ettirish imkonini bermoqda. Ushbu integratsiyalashgan tizimda tovarlar harakatiga doir axborotlarga ishlov berish ketma-ketligi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Zamonaviy AKTlar va amaliy dasturlarning integratsiyalashgan tizimi asosida tovarlar harakatiga doir axborotlarga ishlov berish ketma-ketligi

Dissertatsiyada yuqorida keltirilgan zamonaviy AKTlar va amaliy dasturlarning integratsiyalashgan tizimi asosida korxonalarda birgalikda savdo faoliyati mazmunini tashkil qiluvchi tovarlar harakati hisobini “xarid - sotuvga tayyorlash - sotish” jarayonlari kesimida yaxlit uzluksiz tizim asosida yuritishning 3 bosqichli modeli tavsiya berdik, shuningdek ushbu jarayonlarning har birida korxona buxgalteriyasi tomonidan hisob va hisobotga oid bajariladigan funksiyalar (aniq ishlar) tarkibi quyidagicha belgilangan (3-rasm).



3-rasm. Zamonaviy raqamli savdo faoliyati turlari hisobini jarayonlar kesimida tashkil qilishning 3-bosqichli modeli va uning tarkibida bajariladigan ishlar tarkibi

Ikkinchidan, ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlar harakati to'g'risidagi axborotlarni “xarid - sotuvga tayyorlash - sotish” jarayonlari zanjirining har bir bosqichi kesimida qat'iy ketma-ketlikda tizimli shakllantirishga imkon beruvchi quyidagi schyotlarni korxonalar hisob siyosati bilan tasdiqlanadigan ishchi schyotlar rejasiga kiritish tavsiya etilmoqda: Amaldagi “Tovar-moddiy zahiralarni” nomli 4-son BHMS va “Zahiralarni” nomli 2-son MHXSga muvofiq ulgurji savdo korxonalarida tovarlar xarid narxi (tannarxi) bo'yicha, chakana savdo korxonalarida esa ular sotish narxlari buyicha joriy hisobda aks ettirilishi lozim. Shu bilan birga yuqoridagi standartlar talablariga ko'ra har ikkala maqomdagi korxonalarda tovarlar aktivlar sifatida ularning buxgalteriya balansida (Xalqaro standartlarga ko'ra moliyaviy holat to'g'risida hisobotda) tannarx yoki sof sotish qiymatining eng kichigi bo'yicha aks ettirilishi kerak. Bunda **sof sotish qiymati (Ssq)** deganda tovar sotish (bozor) narxining (S_b , B_b) uning xarid bahosi yoki tannarxidan (X_b , T) ham past bo'lib qolgan narxi tushuniladi, ya'ni $(S_b, B_b) < (X_b, T)$. Milliy va xalqaro standartlarda belgilangan yuqoridagi tartiblardan kelib chiqib, tovarlar xarid jarayoni bo'yicha hisob oldida turgan bosh vazifa bo'lib tovarlarning xarid va sotish (bozor) baholarini to'g'ri hisob-kitob qilish xamda qo'llash hisoblanadi.

Tovarlarining ushbu baholari standartlarga muvofiq tarkiban quyidagi elementlardan tashkil topadi:

$$S_b (B_b) = X_b (T) + F (U) + A_s + QQS \quad (1)$$

$$X_b (T) = X_n + B_x + T_x + V_x + Y_{ux} + B_{xx} \quad (2)$$

Bu yerda: S_b – sotish bahosi; B_b – bozor bahosi; $X_b (T)$ – xarid bahosi (tannarxi); $F (U)$ – foyda (ustama); A_s – aksiz solig'i; QQS – qo'shilgan qiymat solig'i; X_n – tovarning xarid narxi; B_x – bojxona xarajatlari; T_x – tashib keltirish xarajatlari; V_x – vositachilik xarajatlari; Y_{ux} – yuridik xizmatlar; B_{xx} – boshqa xarid xarajatlari.

2-jadval

Tovarlar harakati to'g'risidagi axborotlarni "xarid - sotuvga tayyorlash - sotish" jarayonlari zanjirining har bir bosqichi kesimida qat'iy ketma-ketlikda tizimli shakllantirishga mo'ljallangan schyotlar tizimi (tavsiya)

Schet	Schetning nomi	Schet xarakteri
A. Xarid jarayoni bo'yicha		
1520	Tovarlarni xarid qilish va boshqa manbalardan kirim qilish	A
1620	Ta'minotchilar tomonidan taqdim etilgan chegirmalar, bonuslar va keshbek	KA
2910	Korxona omboridagi tovarlar	A
B. Sotuvga tayyorlash jarayoni bo'yicha		
2921	Chakana savdo rastalaridagi tovarlar	A
2922	Birjadagi tovarlar	A
2923	UzPost bo'limlaridagi tovarlar	A
1720	Savdo ustamaları va ular bo'yicha chegirmalar	KA
9411	Sotuvga tayyorlash xarajatlari	T
B. Sotish jarayoni bo'yicha		
9021	Raqamli ulgurji sotishdan tushum	TP
9022	Raqamli chakana sotishdan tushum	TP
9023	Raqamli nasiya sotishdan tushum	TP
9024	Raqamli UzPost bo'limlari orqali sotishdan tushum	TP
9121	Raqamli ulgurji sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9122	Raqamli chakana sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9123	Raqamli nasiya sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9124	Raqamli UzPost bo'limlari orqali sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9412	Sotish xarajatlari	TA
A- aktiv, P- passiv		

Respublikamizning soliq kodeksiga (248-modda) muvofiq savdo korxonalarini orqali sotiladigan tovarlarning sotish baholari davlat byudjeti foydasiga undiriladigan QQS, foyda va aylanmadan soliqni xisob-kitobida solik bazasi sifatida olingan bozor narxlaridan past bo'lmashligi lozim. Bunda tovarlarning bozor narxlarini deganda taqqoslanadigan iqtisodiy (tijorat) sharoitlarda aynan o'xshash yoki bir turdagi tovarlar bozorida talab va taklif asosida shakllanadigan sotish narxi tushuniladi. Bozor narxlariga amal qilish tadbirkorlarni soliqqa tortishda adolatlilik, bir xillik, teng raqobat muhitini yaratish tamoyillariga erishishning muhim dastagi hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu tamoyillarni to'liq ijrosini ta'minlashning muhim sharti bo'lib tovarlar (xizmatlar) sotish narxlarini bozor narxlaridan past bo'lmagan miqdorda shakllantirishni qonun hujjatlari bilan bevosita bozor ishtirokchisi bo'lgan sotuvchining zimmasiga qat'iy funktsiya va mas'uliyat sifatida yuklash hisoblanadi.

Chunki, bozor ishtirokchisi ham, bozorda tovarni sotuvchi ham, undan daromad oluvchi ham, byudjetga tegishli soliqni to'lovchisi bo'lib bevosita sotuvchi hisoblanadi. Aynan shundan kelib chiqib, shuningdek soliq to'lovchilarda asossiz norozilik vujudga kelmasligi oldini olish uchun amaldagi "Tovar-moddiy zahiralar" nomli 4-son BHMSning alohida bo'limida tovarlar (xizmatlar) bahosini bozor narxlaridan kelib chiqib real shakllantirish bevosita sotuvchilarning funksiyasi hamda mas'uliyati ekanligi, shuningdek ushbu funktsiya va mas'uliyatni bajarish mexanizmlari maxsus belgilanishi lozim, deb hisoblaymiz. Bunday mexanizmlar sifatida maqolamizda quyidagilar taklif qilingan.

Birinchidan, 4-son BHMSda korxonalar tomonidan barcha tovarlar bo'yicha "Tovar kirim bahosi (tannarxi) va sotish (bozor) bahosi hisob-kitobi" hujjatini yaxlit shaklini va uni majburiy tuzish tartibini belgilash lozim. Ishimizda ushbu hisob hujjatining namunaviy shakli hamda uni tuzish tartiblari tavsiya etilgan.

3-jadval

Tovarlar kirimi va ular kirim qiymati (tannarxi)ni aniqlash uchun mo'ljallangan 1520 "Tovarlarni xarid qilish va boshqa manbalardan kirim qilish" schyotini yuritishning tavsiya etilayotgan uslubiy tartiblari

T/r	Operatsiya mazmuni	Korresponden-siyalanadigan schyotlar		Summa	Hisob yozuviga asos
		Debet	Kredit		
1. Tovarlarining MIK kesimida xarid qilinishiga oid operatsiyalar					
1	Kirim qilingan «A» tovarning MIK bo'yicha xarid narxidagi summasiga	1520	6010	1 000 000	Shartnomalar, schyot-fakturalar
2	Kirim qilingan «A» tovarning MIK bo'yicha unga to'g'ri keluvchi bojxona to'lov-lari summasiga (QQSsiz) (maxsus hisob-kitob asosida)	1520	6990	20 000	DBD, invoslar
3	Kirim qilingan «A» tovarning MIK bo'yicha unga to'g'ri keluvchi transport xarajatlari summasiga (QQSsiz) (maxsus hisob-kitob asosida)	1520	6990	40 000	Shartnomalar, schyot-faktura-lar, TTN
4	Kirim qilingan «A» tovarning MIK bo'yicha unga to'g'ri keluvchi boshqa xarid xarajatlari (vositachilik, yuridik, safar va boshqa xizmatlar summasiga (QQSsiz) (maxsus hisob-kitob asosida)	1520	6990	100 000	Shartnomalar, schyot-faktura-lar, bunak hisobotlari va boshqalar
	Kirim qilingan "A" tovarning jami xarid qiymati (tannarxi)			1 160 000	
2. Tovarlarining MIK kesimida boshqa manbalardan kirim qilinishiga oid operatsiyalar					
1	Tovarlarining MIK kesimida ta'sischilardan kirim qilinishiga	1520	4610	20 000 000	Ta'sis shartnom-alari, schyot -fakturalar, kirim dalolat-nomalari
2	Tovarlarining MIK kesimida beg'araz olinishiga	1520	8530	10 000 000	Shartnomalari schyot-fakturalar, kirim dalolat-nomalari
3	Inventarizatsiyada aniqlangan tovarlarining MIK kesimida aniqlangan ortiqcha summalariga	1520	9390	500 000	Inventarizatsiya qaydnomasi va dalolatnoma
4	O'zi ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni tovar sifatida MIK kesimida kirim qilingan summasiga	1520	2810	30 000 000	Ichki naklodnoylar
3.Xarid qilingan va boshqa manbalardan kirim qilingan tovarlarining MIK kesimida hisobdan chiqarilishiga					
1	Sotilgan tovarlarining MIK kesimida hisobdan chiqarilgan summasiga	9120	1520	200 000 000	NKM cheklari
2	Sotilmasdan qolingan xarid tovarlarining MIK kesimida 2910 "Tovarlar" schvyotiga o'tkazilishiga	2920	1520	23 000 000	Tovar qoldig'i reestri

Izoh: fikrimizcha, korxonalar 1520 schyotni doimiy schyot yoki tranzit (vaqtinchalik) schyot sifatida qo'llashlari mumkin, Doimiy schyot sifatida ishlatilgan holda, amaldagi 2920 schyotni qo'llash shart emas, 1520 schyotning qoldig'i bevosita sotilmasdan qolingan xarid tovarlar summasini ko'rsatib turadi. Agarda 1520 schyot tranzit schyot sifatida ishlatilsa, bu holda u 2920 schyotga yopiladi va oxirgi schyot ma'lumoti balansda tovar qoldig'ini tasdiqlovchi rolini o'ynaydi.

Ikkinchidan, biz tomonimizdan tavsiya etilgan hisob-kitob asosida savdo korxonalarida majburiy tarzda qo'llaniladigan barcha tovarlarning markirovka identifikatsiya kodlari (MIK) kesimida ularning xarid narxlari (tannarxi) va sotish narxlari reestri bazasini zamonaviy AKT vositalari asosida shakllantirish hamda ularga amal qilish talab qilinadi. Ishimizda ushbu reestrning takomillashtirilgan shakli hamda uni yuritish tartiblari tavsiya etilgan.

Xarid jarayoni hisobi uchun biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan schyotlarni (ular 2-jadvalda keltirilgan) yuritishning tavsiya etilayotgan uslubiy tartiblari 3-jadvalda keltirilgan.

Xulosa va takliflar.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlovchi asosiy tizim, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda strategik axborot manbai sifatida ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mavjud buxgalteriya amaliyotida bir qator tizimli kamchiliklar mavjud: buxgalteriya axborotlarini to'plashda subyektivlik, hisob siyosatining normativ talablarga to'liq mos kelmasligi, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmasligi va ichki nazorat mexanizmlarining sustligi shular jumlasidandir.

Mazkur maqolada taklif etilgan takomillashtirish yo'nalishlari – buxgalteriya dasturlarini avtomatlashtirish, xalqaro standartlarga mos hisob siyosatini ishlab chiqish, xodimlar malakasini oshirish orqali savdo korxonalarida hisob yuritishning aniqligi, shaffofligi va operativligi oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, real vaqt rejimida axborot almashinuvi va tahliliy hisobotlarning mavjudligi, menejrlarning tezkor va asosli qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish korxona ichki boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik va tashqi auditorlar oldida ishonchlilik darajasini oshiruvchi muhim omildir. Shu bois, bu sohadagi islohotlar nafaqat hisob yuritish tizimini modernizatsiya qilish, balki butun boshqaruv madaniyatini yangilashning zaruriy bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

Asoworld.com. (2023). Отчет о тенденциях в отрасли электронной коммерции за 2023 год. [online] Available at: <https://asoworld.com/ru/blog/2023-e-commerce-industry-trend-report/>

Po'latov, X. (2023). Elektron savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish 132.

Абдукаримов Б.А. (2013) Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик. 1-қисм. – Т.: Фан ва технология, 150-бет.

Пўлатов, Х. У. (2023). Савдо корхоналарида молиявий фаолияти ҳисобининг методологик масалалари. Экономика и социум, (6-2 (109)), 931-934.

Пўлатов, Х. У. (2023). Савдо корхоналарида товарларни сотилиши аудитини такомиллаштириш. Экономика и социум, (6-2 (109)), 919-921.

Пўлатов, Х. У. (2023). Савдо фаолиятини солиққа тортишдаги муаммолар. Экономика и социум, (6-2 (109)), 928-930.

Пўлатов, Х. У. (2023). Савдони ривожлантиришда рақамли технологияларининг ўрни. Экономика и социум, (6-2 (109)), 939-942.

Уразов К.Б. (2004) Савдода бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш. –Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, –336 б.; 101.

Уразов К.Б. (2005) Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Маърузалар матни. 1-қисм. – Самарқанд, СамИСИ, 5-бет.

Уразов К.Б., Вахидов С.В. (2011) Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. – Т.: «Адиб», – 480 б.

Уразов, К. Б., & Ширинов, У. А. (2023). Об особенностях учёта товарно-материальных ценностей на таможенных складах. Экономика и социум, (6-2 (109)), 1041-1045.